“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Jinoyat ishini tugatishga oid xorijiy davlatlar tajribasi

Sunnat Maxmudov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: maxmudov@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада жиноят ишини тугатиш институтини янада такомиллаштириш мақсадида хорижий давлатлар тажрибаси ўрганилди. Мақолада хорижий давлатларнинг жиноят ишини тугатишга оид қонунчилик нормалари, жиноят ишини тугатиш асослари, тартиби ва механизмлари назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил этилди. Таҳлил натижалари юзасидан, хорижий давлатларнинг жиноят ишини тугатишга оид ижобий тажрибасини миллий қонунчиликка жорий қилиш юзасидан тегишли хулосалар, таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди.

Калит сўзлар. жиноят иши, жиноят ишини тугатиш, жавобгарлик, реабилитация, жиноят ишини реабилитация қилинмайдиган асослар бўйича тугатиш, реабилитация қилинмайдиган асослар

Аннотация. В данной статье был изучен опыт зарубежных стран в целях дальнейшего совершенствования института прекращения уголовных дел. В статье проведен теоретический и практический анализ законодательных норм зарубежных стран, касающихся прекращения уголовных дел, а также рассмотрены основания, порядок и механизмы прекращения уголовных дел. По результатам анализа были разработаны соответствующие выводы, предложения и рекомендации по внедрению в национальное законодательство положительного опыта зарубежных стран в области прекращения уголовных дел.

Ключевые слова. уголовное дело, прекращение уголовного дела, ответственность, реабилитация, прекращение уголовного дела по нереабилитирующим основаниям, нереабилитирующие основания

Annotation. In this article, the experience of foreign countries was studied in order to further improve the institution of termination of criminal cases. The article presents a theoretical and practical analysis of foreign countries legislative norms regarding the termination of criminal cases, as well as the grounds, procedures, and mechanisms for concluding criminal proceedings. Based on the analysis results, relevant conclusions, proposals, and recommendations were developed regarding the incorporation of positive experiences from foreign countries on terminating criminal cases into national

legislation.

Keywords. criminal case, termination of a criminal case, a responsibility, rehabilitation, release from liability termination of a criminal case on non-rehabilitating grounds, non-rehabilitating grounds

Jinoyat ishini tugatish instituti bilan bog‘liq milliy qonunchilikni takomillashtirish masalasini xorijiy mamlakatlarning ushbu sohadagi qonunchiligini o‘rganmasdan turib amalga oshirish o‘rinli bo‘lmaydi. Zero, turli rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qonunchiligini tahlil qilish orqali sohada so‘nggi yillarda amalga oshayotgan tendensiyani ko‘rib chiqish hamda ilg‘or tajribalarni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish juda ham muhim hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qiladigan bo‘lsak, jinoyat ishini (jinoiy ta’qibni) tugatish bilan bog‘liq normalar bir nechta moddalarda belgilanganini ko‘rishimiz mumkin [1]. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 24-moddasida jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish asoslari belgilangan bo‘lsa-da, taraflarning yarashuvi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish alohida moddada – Kodeksning 25-moddasida belgilangan. Shu kabi, sud jarimasi shaklida jinoiy-huquqiy xarakterdagi choralar tayinlanishi munosabati bilan jinoyat ishini yoki jinoiy ta'qibni tugatishga oid normalar 25.1-moddada alohida belgilangan.

Bizningcha, jinoyat ishini tugatish bilan bog‘liq normalarning bu kabi tarqoq, tizimlashmagan holda belgilanishi maqsadga muvofiq emas. Zero, yuqorida sanab o‘tilgan holatlarning barchasi jinoyat ishini tugatish asoslari hisoblanib, ularning alohida belgilanishi huquqni qo‘llash amaliyotida, unchalik katta bo‘lmasada, muayyan darajada muammolarning yuzaga kelishiga hamda mazkur normalarni qo‘llashda turlicha amaliyotning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Rossiya qonunchiligiga ko‘ra, quyidagi holatlarda jinoyat ishini qo‘zg‘atish mumkin emas, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi esa tugatilishi lozim:

1) jinoiy hodisa yuz bermagan bo‘lsa;

2) qilmishda jinoyat tarkibi bo‘lmasa;

3) jinoiy ta’qibni amalga oshirish muddati o‘tib ketgan bo‘lsa;

4) gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining vafot etganligi munosabati bilan, bundan reabilitatsiya qilish uchun ishni yuritish zarur bo‘lgan hollar mustasno;

5) jinoyat ishi faqat jabrlanuvchining arizasi bo‘yicha qo‘zg‘atilishi mumkin bo‘lgan hollarda bunday arizaning mavjud emasligi yoki xususiy ayblovchining sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmaganligi sababli;

6) jinoyat ishi qo‘zg‘atishda alohida immunitetga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi uchun tegishli ruxsat berish rad etilgan taqdirda;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

7) soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga va (yoki) Rossiya Federatsiyasining ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug‘urta to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda va miqdorda qarzdorlik, jarimalar va boshqa tegishli to‘lovlarning to‘liq to‘lanishi munosabati bilan.

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, Rossiya qonunchiligidagi jinoyat ishini tugatish asoslari ham muayyan darajada milliy qonunchiligimizdagi shu kabi normalar bilan o‘xshash hisoblanadi.

Fikrimizcha, yuqorida keltirib o‘tilgan oltinchi asosni, ya’ni jinoyat ishi qo‘zg‘atishda alohida immunitetga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi uchun tegishli ruxsat berish rad etilgan taqdirda jinoyat ishini tugatish lozimligi to‘g‘risidagi qoidani milliy qonunchiligimizga kiritish masalasini alohida muhokama qilish maqsadga muvofiq. Zero, shu kabi qoidani Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligida ham ko‘rishimiz mumkin [2].

Shu kabi boshqa bir normani, ya’ni Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 24-moddasi 2-qismida keltirilgan agar hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar ushbu qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi yangi jinoyat qonuni bilan bekor qilingan bo‘lsa, ushbu hollarda jinoyat ishini yuqorida sanab o‘tilgan ikkinchi asosga ko‘ra (qilmishda jinoyat tarkibi mavjud emasligi) tugatilishi kerakligi to‘g‘risidagi normani milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish masalasini ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi.

Jinoyat ishini tugatish asoslarining ro‘yxati yuqorida keltirilgan asoslar bilan chegaralanib qolmagan. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, qonun chiqaruvchi ikkita asosni yuqoridagi modda tarkibiga kiritmasdan, alohida moddalar sifatida qabul qilgan. Ushbu moddalar mazmuniga ko‘ra, uncha og‘ir bo‘lmagan yoki o‘rtacha og‘irlikdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat ishi taraflarning yarashganligi munosabati bilan yoki sud jarimasi shaklidagi jinoiy-huquqiy xarakterdagi choralar tayinlanishi munosabati bilan tugatilishi mumkin.

E’tiborga molik jihati shundaki, Rossiya qonunchiligiga ko‘ra, mazkur asosga ko‘ra jinoyat ishini tugatish vakolati tergovchi va surishtiruvchilarga ham berilgan. Bunda, tergovchi tomonidan tergov organi boshlig‘ining, surishtiruvchi tomonidan esa prokuror roziligini olish talab etiladi.

Bizningcha, mazkur amaliyot jinoiy odil sudlov manfaatlariga zarar yetkazish xususiyatiga ega bo‘lib, bunday vakolat jabrlanuvchiga ta’sir o‘tkazish orqali jinoyat ishi noqonuniy tugatish holatlariga olib kelishi mumkin. Qiyoslash uchun, milliy qonunchiligimizga ko‘ra sudlar yarashuvga oid ishlarni ko‘rib chiqayotganda yarashuvning ixtiyoriyligi va uning sabablarini, aybga ixtiyoriy iqrorlik masalasini, yetkazilgan zarar bartaraf etilganligini, taraflarga biron bir tazyiq bo‘lgan-bo‘lmaganligi va ularning yarashuvga haqiqatda roziliklarini aniqlaydi. Bu kabi keng

vakolatlarning tergov organlariga berilishi esa maqsadga muvofiq hisoblanmaydi.

Rossiya qonunchiligida yuqorida keltirilgan jinoyat ishini tugatish asoslaridan tashqari jinoiy ta’qibni tugatish asoslari ham belgilangan. Jinoyat-protsessual kodeksining 27-moddasiga ko‘ra, jinoiy ta'qib quyidagi asoslar bo‘yicha tugatiladi:

1) gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining jinoyat sodir etishda ishtirok etmaganligi sababli;

2) jinoyat ishi ushbu Kodeksning 24-moddasi birinchi qismining 1-6-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha tugatilganda;

3) amnistiya aktiga asosan;

4) gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchiga nisbatan xuddi shu ayblov bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan sud hukmi yoki qarori yoxud sudyaning xuddi shu ayblov bo‘yicha jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi qarori mavjud bo‘lganda;

5) gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchiga nisbatan surishtiruv organi, tergovchi yoki prokurorning xuddi shu ayblov bo‘yicha jinoyat ishini tugatish yoki jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi o‘zgartirilmagan qarori mavjud bo‘lganda;

6) Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining Davlat Dumasi o‘z vakolatlarini bajarishni to‘xtatgan Rossiya Federatsiyasi Prezidentining daxlsizligidan mahrum etishga rozilik berishdan bosh tortishi va (yoki) Federatsiya Kengashining ushbu shaxsning daxlsizligidan mahrum qilishdan bosh tortishi sababli.

E’tiborga molik jihati shundaki, ham Qozog‘iston, ham Rossiya qonunchiligida jinoyat sodir etish yoshiga yetmagan shaxslarga nisbatan jinoyat ishini tugatishga oid bir xil normani uchratishimiz mumkin. “Shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yoshga to‘lmagan” holatlar jinoyat ishini tugatishda alohida qonuniy asos sifatida belgilab qo‘yilgan O‘zbekiston qonunchiligidan farqli ravishda, ushbu davlatlar qonunchiligiga ko‘ra bu kabi shaxslarga nisbatan jinoyat ishi qilmishda “jinoyat tarkibining mavjud emasligi” asosi bilan tugatiladi.

Bizningcha, Qozog‘iston va Rossiyada yo‘lga qo‘yilgan mazkur amaliyot to‘g‘ri bo‘lib, qonunchiligimizdagi ushbu normani tanqidiy ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Zero, jinoyat subyekti yoshiga yetganlik ham jinoyat tarkibining bir qismi hisoblanadi va uni alohida asos sifatida belgilash o‘rinli emas.

Shu bilan birga, ushbu davlatlarda jinoyat subyekti yoshiga yetmaganlar sirasiga kirmasa-da, xuddi shu asos bilan jinoyat ishi tugatilishi mumkin bo‘lgan boshqa bir toifa shaxslar – jinoyat sodir etish vaqtida jinoyat subyekti yoshiga yetgan, biroq aqliy rivojlanishda orqada qolganligi (ruhiy kasallar bundan mustasno) sababli o‘z harakatlari (harakatsizligi)ning haqiqiy tabiatini va ijtimoiy xavfliligini to‘liq anglay olmagan va ularni boshqara olmagan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ham jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi kerak.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Fikrimizcha, mazkur normani ham milliy qonunchiligimizga joriy etish o‘rinli bo‘ladi.

Qozog‘iston va Rossiya qonunchiligidagi yana bir muhim jihat shundaki, har ikkala davlat jinoyat-protsessual qonunchiligida reabilitatsiya oqibatlarini keltirib chiqaruvchi jinoyat ishini tugatish asoslarining keng ro‘yxati belgilangan. Milliy qonunchiligimizda, xususan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 83-moddasida reabilitatsiyaga asos bo‘luvchi atigi uchta asos sanab o‘tilgan bo‘lsa, Qozog‘iston va Rossiyada boshqa yana uchta asos bo‘yicha (jabrlanuvchining shikoyati bo‘lmagan taqdirda va/yoki xususiy ayblovdan voz kechilgan hollarda; agar shaxsga nisbatan xuddi shu ayblov bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan sud hukmi yoki ishni tugatish haqida bekor qilinmagan ajrimi bo‘lsa; agar shaxsga nisbatan jinoiy ta'qib qilish organining xuddi shu gumon bo‘yicha jinoiy ta'qibni tugatish to‘g‘risidagi bekor qilinmagan qarori bo‘lsa) ish yuritish tugatilganda reabilitatsiyaga nisbatan huquq paydo bo‘ladi. Shuningdek, yuqoridagilardan tashqari agar sodir etilgan qilmish uchun jinoiy javobgarlikni bekor qiluvchi qonun kuchga kirsa yoki Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ushbu jinoyat ishi bo‘yicha qo‘llanilishi lozim bo‘lgan qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatni Konstitutsiyaga zid deb topganligi sababli ish yuritish tugatilgan hollarda ham reabilitatsiya oqibatlari kelib chiqishi belgilab qo‘yilgan.

Bizningcha, jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish yo‘lidagi islohotlar mazkur tajribani joriy etish masalasini ham qamrab olmog‘i lozim. Zero, aybi bo‘lmagan holda jinoiy ta’qibga uchragan har qanday shaxs reabilitatsiya huquqi bilan kafolatlanmog‘i lozim.

Gruziya qonunchiligini tahlil qiladigan bo‘lsak, mazkur davlat jinoyat-protsessual qonunchiligida ham yuqorida keltirib o‘tilgan davlatlar hamda milliy qonunchiligimizda belgilangan asoslarni ko‘rishimiz mumkin. E’tiborga molik jihati shundaki, Gruziya Jinoyat-protsessual kodeksining 105-moddasida yangi qonunning qilmishning jinoiyligini bekor qilishi, ayblov ilgari surilayotgan qonun normasining konstitutsiyaga zid deb topilishi hamda jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish kabilar ham jinoyat ishini tugatishga asos bo‘lishi belgilab qo‘yilgan[3].

Gruziya jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko‘ra, jinoiy ta'qib jinoiy odil sudlov siyosati ko‘rsatmalariga zid bo‘lgan taqdirda ham tugatilishi mumkin.

Bizningcha, mazkur qoida juda ham keng bo‘lib, uning qonunchilikda belgilanishi maqsadga muvofiq emas. Zero, u huquqni qo‘llash organlari tomonidan turlicha talqin qilinishi natijasida yagona amaliyotni shakllantirishga to‘sqinlik qilishi, shuningdek jinoyat ishlarining asossiz tugatilishiga hamda adolat va tenglik prinsiplarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu davlat qonunchiligiga ko‘ra jinoyat ishini tugatishning quyidagi asoslari belgilanganligini ko‘rishimiz

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mumkin:

1) qilmishning kam ahamiyatligi sababli;
2) muayyan harakatlarni bajarish sharti bilan;
3) ayblovdan voz kechganlik sababli;
4) xorijda sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha;
5) jinoiy ta’qibni amalga oshirish og‘ir salbiy oqibatlarni olib keladigan yoki jamiyat manfaatlariga zarar yetkazadigan holatlar bo‘yicha;
6) aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz yoki aybiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganlik holatlari bo‘yicha;
7) xalqaro huquqqa qarshi jinoyatlar kodeksi bilan qamrab olinadigan ishlar bo‘yicha;
8) jinoyat uchun jazo tayinlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan boshqa unchalik muhim bo‘lmagan ishlar bo‘yicha;
9) ayblanuvchi ekstraditsiya qilingan, deportatsiya qilingan yoki chiqarib yuborilganda;
10) majburlash yoki tovlamachilik natijasida sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha;
11) jinoyat ishini yuritish fuqarolik yoki ma’muriy ish yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan va bunday ish yuritish natijasida hech qanday natija olinmagan holatlarda;
12) gumonning xato (yolg‘on) ekanligi aniqlangan bo‘lsa [4].

Yuqorida keltirilgan deyarli barcha asoslar bo‘yicha jinoyat ishini yoki jinoiy ta’qibni to‘xtatish vakolati prokurorga berilgan. Shu bilan birga, sanab o‘tilgan 1, 2, 3 hamda 6-asoslar bo‘yicha jinoyat ishini tugatishda mazkur ishni ko‘rib chiqish vakolat doirasiga kiruvchi sudning roziligini olish talab etiladi.

Muayyan harakatlarni bajarish sharti bilan ish yuritishni tugatish masalasiga batafsilroq to‘xtaladigan bo‘lsak, kam ahamiyatli jinoyatlar bo‘yicha prokuror ayblanuvchining oldiga muayyan shartlarni qo‘yish orqali jinoyat ishini tugatish vakolatiga ega. Bunday shartlarga Davlatga yoki xayriya tashkilotiga pul o‘tkazish, yetkazilgan zararni qoplash, jabrlanuvchi bilan mediatsion kelishuvga erishish uchun jiddiy harakatlarni sodir etish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish kurslarida ishtirok etish, haydovchilik kurslarida ishtirok etish kabilar kiradi. Prokuror mazkur asos bilan jinoyat ishini tugatishdan oldin suddan tashqari ayblanuvchidan ham rozilik olishi shart hisoblanadi.

Shuningdek, ayrim holatlarda ish muayyan muddatga tugatilishi mumkin. Xususan, Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 154f-moddasiga ko‘ra, ayblanuvchi aniqlanmagan yoki boshqa muayyan to‘siqlar mavjud bo‘lgani sababli tergovni davom ettirish imkonsiz bo‘lgan hollarda mazkur ish vaqtincha tugatilishi kerak. Mazkur modda mazmunini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu normadagi “vaqtincha tugatish” milliy qonunchiligimizdagi jinoyat ishini to‘xtatib turishga o‘xshab ketadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jinoyat ishini va jinoiy ta’qibni tugatish uchun quyidagi asoslar belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin [5]:

1) ayblanuvchiga ayb e’lon qilish uchun yetarli dalillar aniqlanmaganda (AQSh Konstitutsiyasiga 4-tuzatish);

2) jinoyat uchun ayblov e’lon qilish muddati o‘tganligi sababli (AQSh kodekslari 18-bo‘lim 3282-paragrafi);

3) siyosiy immunitet yoki jinoiy ta’qibga qarshi immunitetga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan, agar ular immunitetdan mahrum qilinmagan bo‘lsalar (AQSh kodekslari 42-bo‘lim 1983-paragrafi hamda “Imbler v. Pachtman” sud pretsedenti);

4) ikki tomonlama xavf (“Double jeopardy”) prinsipi – shaxsning ayni bir ayb uchun bir marta javobgarlikka tortilishi (AQSh Konstitutsiyasiga 5-tuzatish);

5) ayblanuvchining vafot etganligi munosabati bilan (“Durham v. United States” sud pretsedentidagi “Abatement ab initio” doktrinasi);

6) muayyan majburiyat yoki shartlarni bajarganlik munosabati bilan (AQSh kodekslari 18-bo‘lim 3154-paragrafi);

7) aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvga asosan (Jinoyat protsessining federal qoidalari 11(c)-bandi);

8) sudgacha bo‘lgan iltimosnomalar asosida – dalillar yetishmasligi, noqonuniy tintuv va olib qo‘yish, ayblanuvchi huquqlarining buzilishi (Jinoyat protsessining federal qoidalari 12-bandi);

9) prokurorning ixtiyoriga ko‘ra (“U.S. v. Armstrong” hamda “Wayte v. United States” sud pretsedentlari).

Ko‘rib turganimizdek, yuqorida keltirib o‘tilganlardan bir nechtasi milliy qonunchiligimizda mavjud bo‘lgan jinoyat ishini tugatish asoslariga o‘xshab ketadi.

Fikrimizcha, AQShda mavjud bo‘lgan jinoyat ishini va jinoiy ta’qibni tugatish asoslari tizimi o‘zining turli huquqiy doktrinalar va prinsiplar ustiga qurilgani bilan ajralib turadi.

Yana bir e’tiborga molik jihati shundaki, AQShda prokurorlar xuddi Germaniyada bo‘lgani kabi [6] keng vakolat doirasiga ega bo‘lib, shaxsning aybi ishda mavjud bo‘lgan dalillar bilan isbotlangan va o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lsa-da, jinoiy odil sudlov siyosatidan kelib chiqqan holda jinoyat ishini qo‘zg‘atmaslik yoki uni tugatish haqida qaror qabul qilishlari mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tahlillar natijasida quyidagicha xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Rossiya va Qozog‘iston qonunchiligida belgilangan sodir etilgan qilmish uchun jinoiy javobgarlikni bekor qiluvchi qonunning kuchga kirishi yoki ushbu jinoyat ishi bo‘yicha qo‘llanilishi lozim bo‘lgan qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaga zid deb topilishi jinoyat ishini yuritishni tugatish uchun asos bo‘lishi haqidagi normani milliy qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. AQSh, Qozog‘iston va Rossiya tajribasidan foydalangan holda, jinoiy ta'qibdan imtiyoz yoki immunitetga ega bo‘lgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish bo‘yicha vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan rozilik berilmaganligi holatini jinoyat ishini tugatish

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

asoslaridan biri sifatida belgilash lozim.

3. Rossiya va Qozog‘iston qonunchiligi tajribasidan foydalanib, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yoshga to‘lmaganligi holatlarini qilmishda jinoyat tarkibining mavjud emasligi asosi bilan tugatish amaliyotini joriy etish, shuningdek jinoyat sodir etish vaqtida jinoyat subyekti yoshiga yetgan, biroq aqliy rivojlanishda orqada qolganligi (ruhiy kasallar bundan mustasno) sababli o‘z harakatlari (harakatsizligi)ning haqiqiy tabiatini va ijtimoiy xavfliligini to‘liq anglay olmagan va ularni boshqara olmagan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ham jinoyat ishini xuddi shu asos bilan tugatish mumkinligi to‘g‘risidagi normani milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. Milliy qonunchiligimizda belgilangan reabilitatsiya asoslarini (O‘z.R. JPK 83-moddasi) Rossiya va Qozog‘iston qonunchiligi tajribasi misolida qayta ko‘rib chiqish lozim. Zero, shaxs aybsiz holatda yoxud jinoyat ishi yuritishning tegishli shartlariga rioya qilinmasdan turib ishga jalb qilingan holatlarda (jabrlanuvchining shikoyati talab qilinadigan ishlar bo‘yicha bunday shikoyat bo‘lmasa; shaxsga nisbatan xuddi shu ayblov bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan sud hukmi yoki ishni tugatish haqida bekor qilinmagan ajrimi bo‘lsa; shaxsga nisbatan xuddi shu gumon bo‘yicha ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi bekor qilinmagan qaror bo‘lsa) reabilitatsiya oqibatlari kelib chiqishini belgilash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Criminal Procedure Code of the Russian Federation. ConsultantPlus Legal Information System. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481 (July 10, 2025).

2. Criminal Procedure Code of the Republic of Kazakhstan. Adilet Legal Information System, Ministry of Justice of the Republic of Kazakhstan. Available at: https://adilet.zan.kz/eng/docs/K1400000231 (Accessed: July 10, 2025).

3. Criminal Procedure Code of Georgia, Legislative Herald of Georgia, https://matsne.gov.ge/en/document/view/90034 (accessed July 10, 2025).

4. German Code of Criminal Procedure (Strafprozeßordnung – StPO). As published on 7 April 1987 (Federal Law Gazette I, p. 1074, 1319), as last amended by Article 2 of the Act of 25 March 2022 (Federal Law Gazette I, p. 571) // https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stpo/englisch_stpo.html

5. The United States Code. Title 18—Crimes And Criminal Procedure; and Appendix. PART II–Criminal procedure (sections 3001 to 3742) // https://uscode.house.gov/browse/prelim@title18/part2&edition=prelim

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

6. German Code of Criminal Procedure (Strafprozeßordnung – StPO). As published on 7 April 1987 (Federal Law Gazette I, p. 1074, 1319), as last amended by Article 2 of the Act of 25 March 2022 (Federal Law Gazette I, p. 571) // https://www.gesetze-im-internet.de /englisch_stpo/englisch_stpo.html